

OZIQ - OVQAT XAVFSIZLIGINING DOLZARB MUAMMOLARIGA DOIR

Sharopova M. A., Qarshi davlat universiteti
Zubaytova Z. T., Qarshi davlat universiteti

Kalit so'zlar. Oziq-ovqat muammosi, oziq-ovqatga bo'lgan talab, oziq-ovqat xavfsizligi.

Oziq-ovqat muammosi jamiyati oldida turgan eng muhim muammolardan biri bo'lib, aholi sonining ortishi, ovqatga bo'lgan talabni ham orttiradi. Ma'lumotlarga ko'ra, yer yuzi aholisi "geometrik progressiya" bo'yicha ortib borayotgan bo'lsada, afsuski, ularning ehtiyoji sust qondirilmoqda. Hozirda jahon aholisining 815 million nafari och qolayotgan bo'lsa, 2050 yilga borib bu raqam 2 milliard kishiga yetishi taxmin qilinmoqda [1,2].

Dunyoda ro'y berayotgan oziq-ovqat inqirozining quyidagi sabablarini ta'kidlash joiz. *Birinchidan*, so'nggi yillarda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilarning xarajatlari oshdi, texnikalarining yoqilg'i narxlari o'sdi, o'z navbatida, transport tariflari oshdi, asosiy mineral o'g'itlarning narxlari ham qimmatlashdi. *Ikkinchidan*, butun dunyo bo'yicha oziq-ovqatga bo'lgan talab hajmida va tarkibida global siljishlar ro'y berdi. Masalan, o'tgan asrning 60-yillaridan buyon aholi soni taxminan uch barobar oshgan bo'lsa-da, ekin maydonlari o'zgarmay qoldi. Bunday holat dunyoning boshqa hududlarida ham ro'y bermoqda. Shuningdek, oxirgi 15-20 yilda aholining oziq-ovqat iste'moli ratsionida ham sezilarli o'zgarishlar sodir bo'ldi. Ayrim rivojlanayotgan mamlakatlarda, jumladan, Xitoy va Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlarida aholi go'shtni ko'proq iste'mol qila boshladi. *Uchinchidan*, bioyoqilg'i bozorining tez sur'atlar bilan rivojlanishi oziq - ovqat narxi oshishiga qo'shimcha sabab bo'lmoqda.

Ushbu sabablardan ko'rinish turibdiki, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash dunyo mamlakatlari oldida turgan eng dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolmoqda. Mutaxassislari ham bugun oziq-ovqat mahsulotlarini yetishtirish va ularni taqsimlash bo'yicha yondashuvni mutlaqo o'zgartirish vaqt kelganini ta'kidlamoqda. Qolaversa, dunyo aholisini yetarli oziq-ovqat bilan ta'minlashda global iqlim o'zgarishlari va aholining ekologiyaga befarq munosabati, oziq-ovqat iste'molidagi isrofgarchilik kabi salbiy omillar ham o'z ta'sirini ko'rsatmoqda.

Foydalilanilgan adabiyotlar:

- Гамаюрова Б.С., Ржецкая Л.Е. Пищевая химия. СПБ, ГИОРД, 2006. 137 с.
- Sharopova M.A. Oziq ovqat kimyosi., Qarshi "Big Makro World"., 2024., 128 b.

-
3. Hazratova H.N., Kurbanov Sh.K., Rahmatullayev Y.Sh., Buranova G.B. Physical Development of Primary Class Students. CENTRAL ASIAN JOURNAL OF MEDIAL AND NATURAL SCIENCES. Vol:04 Issue:05. Sep-Oct. 2023 ISSN: 2660-4159. 330-331 p.
 4. Badigulova, S., and Dustov KT Gulnoza Buranova. "THE ROLE OF MICROELEMENTS IN THE HEALTHY NUTRITION OF ATHLETES STUDENTS." *Journal of Modern Educational Achievements* 1 (2022): 257-259.
 5. Kurbanovich, Kurbanov Shaniyaz, and Buranova Gulnoza Boymuratovna. "Actual Nutrition of Breastfeeding Women in Kashkadarya Region." *Central Asian Journal of Medical and Natural Science* 4.5 (2023): 327-329.
 6. Boymuratovna, Buranova Gulnoza. "Challenging Problems of Healthy Nutrition of Pregnant Women in Uzbekistan." *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION* 4.3 (2024): 71-73.